

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

JUMANOVA Dilrabo Qadamboyevna*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**"Sahna nutqi" kafedrasida katta o'qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.7905653>

SAHNA NUTQINI TAKOMILLASHTIRISHDA MASAL JANRI USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola "Sahna nutqi" fanida masal janrining qo'llanishi va ijrosi borasidagi amaliy ko'nikmalar haqida qisqacha ma'lumot beradi. Masal tahlilida tub ma'noning ochilishi, mantiqiy urg'u, tempo-ritm, pauza, muallif oliy maqsadi va g'oyasiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: spetsifika, g'oya, imitatsiya, tub ma'no, tagdor so'z, so'z urg'usi, mantiqiy urg'u, so'z xatti-harakati, deklamatsiya, tempo-ritm, pauza, harakat, tahlil, talqin.

ДЖУМАНОВА Дилрабо Кадамбоевна.

Старший преподаватель кафедры «Сценическая речь»

Государственного института искусств и культуры Узбекистана.

ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ НАД БАСНЕЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье дается краткий обзор практических навыков применения и исполнения басенного жанра в дисциплине "сценическая речь". Анализ басни затрагивает раскрытие коренного смысла, логического акцента, темпо-ритма, паузы, авторской высшей цели и идеи.

Ключевые слова: специфика, идея, подражание, коренное значение, судьбоносное слово, акцент на слове, логический акцент, поведение слова, декламация, темпо-ритм, пауза, движение, анализ, интерпретаций.

JUMANOVA Dilrabo Qadamboevna

Uzbek State Institute of Arts and Culture,

Teacher of the department "Stage speech", Republic of Uzbekistan, Tashkent city

THE IMPORTANCE OF WORKING ON A FABLE IN IMPROVING STAGE SPEECH

ANNOTATION

This article provides a brief overview of the practical skills in the application and execution of the allegorical genre in the science of "Stage speech". In the analysis of the parable, the opening of the fundamental meaning, logical emphasis, tempo-rhythm, pause, the author touches on the supreme goal and Idea.

Keywords: specification, idea, imitation, fundamental meaning, tagdor word, word stress, logical stress, verbal behavior, declamation, tempo-rhythm, pause, action, analysis, interpretation.

Talabalar nutqining ravon va to'g'ri bo'lishi, ovozinig go'zal va jarangdorligi, fikr izchilligi va mantiqiyligi hamda ta'sirchan so'zga erishishida masallar ijrosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim yo'nalishining spetsifik xususiyatidan kelib chiqqan holda masallar ijrosi ustida ish olib boriladi. Jumladan, "Dramatik teatr va kino aktyorligi", "Musiqali teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar bilan masalning ta'limiy-ahloqiy, g'oyaviy ta'sirchanligi ustida izlanishlar olib borib, ijroda muallif fikri ilgari suriladi. "Estrada aktyorligi" guruhlarida masalning satirik va yumoristik sifatlari hamda talabaning matn ostidagi tub ma'noni ochib berishdagi mahorati ustunlik qiladi. "Qo'g'irchoq teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishlarida bilim olayotgan talabalar esa masal janrini har tomonlama o'rganadi. Avvalo, masalning majoziy xususiyatlarini o'rganib, obrazlar nutqi va imitatsiyasi ustida ish olib boradi. Allegorik obrazlarni jonlantirib, xatti-harakatida tabiiylikka intiladi. Muallif ilgari surgan yashirin g'oyani obrazlarning bahs-munozarasi va aktyorlik mahorati bilan ochib beradi. Fikr izchiligi orqali masalning satirik va yumoristik xususiyatlarini taqdim qiladi. Masallar ijrosi talabalar nutqida rang-barang ko'rinishlarda jarang topib, o'z eshituvchisiga ta'sir o'tkazadi. Talabalar nutqida yangragan masallarni miriqib tomosha qilish bilan birga, uning tarbiyaviy xususiyatlarini ham anglab olish mumkin bo'ladi.

Masalning ta'sirchan qudratiga erishishda talaba bir aktyor teatri namoyandasi sifatida harakat qilib, fikri va so'ziga tomoshabinlarni ergashtira olishi, yuksak mahorati bilan masal mazmunida aks etgan g'oyani ilgari surishi kerak. Avvalo, masal mazmunidagi tub ma'noni anglamoq talabaning asosiy vazifalaridan biridir. "**Tagma'no** (Tag f. – *ost, tub; ostki qism*) [1, B.172] – matnning bevosita mazmuniga muvofiq kelmaydigan, kontekst doirasida va muloqot subektlariga ma'lum bo'lgan muayyan shart asosidagina voqe bo'luvchi ma'no.

Tagma'no fikrning "kosa tagida nim kosa" tarzida ifodalanishi natijasida voqe bo'ladi, shuning uchun bunday hollar "tagdor qilib gapirmoq" deya ta'riflanadi" [2, B.299].

Masal janri tagma'noga (*keyingi o'rinlarda tub ma'no deb yuritiladi*) boyligi va salmoqdorligi bilan ajralib turadi.

Talaba tub ma'no bilan faqat masal janrida emas, balki har qanday asar matni ustida ishlash jarayonida ham to'qnash keladi. Tovushlar talaffuzi, so'z va birikmalar, she'rlar, adabiy parchalar hamda sahnaviy asarlar ustida ishlashda ham tub ma'noni anglash talabaning fikrini teranlashtiradi. Bu esa talabaning aktyorlik mahoratini mukammal egallashida qo'l keladi. Mahoratli pedagog J.Mahmudov talabalarning aktyorlik mahoratini to'laqonli egallashida tub ma'noni o'rganishi borasida shunday fikrlarni aytib o'tadi: "har bir aktyor ohanglar, so'z harakatlari, yuz ifodalari (tashqi ifoda vositalari) orqali ana shu so'z ostiga yashiringan ma'noni ochishi va o'z sahnaviy xatti-harakatlari orqali hamrohiga va tomoshabinga yetkaza bilishi kerak. Bu yo'ldagi birinchi vazifa, o'zining nima haqida gapirayotganini anglab olishdan iborat" [3, B.139] – deydi.

Talaba matnning tub ma'nosini bilmasdan turib ijroga o'tsa, unda quruq deklamatsiya shakllanadi. Bu ijroda soxtalikni, ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Shu bois bo'lajak aktyor va rejissyorlarning dastlabki ta'lim jarayonlarida matn ostidagi tub ma'noni o'rganish jarayoni masallar ijrosi bilan o'zlashtiriladi.

Chunki, masal janri to'g'ridan-to'g'ri voqelikni yoritmaydi, aksincha, allegorik va ramziy obrazlar orqali yashirin fikrni ochib beradi. Talaba masal ijrosida har bir so'zning ma'nosini anglab, fikr izchilligida nutqini bayon qilsa, ijrosi jonli, tabiiy va yorqin bo'ladi. Bu esa masal mazmunining hayotiyliigi va ta'sir doirasini kengaytiradi. Masalning eshitimli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydigan tub ma'noni bilish talabani muallif oliy maqsadi sari yetaklaydi.

Talaba masal mazmunida ifoda etilgan yashirin illatlarni anglab yetar ekan, muallif fikri bilan birlashgan holda o'zining aytmoqchi bo'lgan so'zini ijrosi bilan uyg'unlashtiradi. Tadqiqotchi olim S.Inomxo'jayev: "tub ma'no tufayli nutq shu qadar rangdorlik va joziba kasb etadiki, tinglovchi ijrochining so'zlari bilan ishi bo'lmay qoladi, o'sha so'zlar uyg'otgan tasavvur, o'sha so'zlar jonlantirgan ma'no bilan yashay boshlaydi. Tinglovchida ijrochilik asariga nisbatan ana shunday faol munosabat uyg'ota olish, ularni butun vujudi bilan san'at asariga kirishib ketishini ta'minlay olish san'atkor uchun katta ijodiy yutuqdir" [4, B.135-136] – degan so'zlaridan ham shuni anglash mumkinki, tub ma'noni bilish tomoshabinning qalbini egallashdagi asosiy vazifalardan biridir.

Ijroda tub ma'no ohang orqali yetkazib beriladi. Masalning har bir satrida muallifning fikri batafsil yoritilgan bo'lib, talaba masalni tahlil qilishi, so'z va jumlar ma'nosini anglashi orqali so'z xatti-harakatiga erishadi. "Tub ma'no ohangi oliy maqsadga erishishda yetakchi harakat vazifasini o'taydi. Natijada so'z xatti-harakat quroli bo'lib qoladi" [5, B.71] - deyiladi. Masalning turli ohang va jilo kasb etishi bu tub ma'noni anglab yetish bilan bog'liq. Talaba matn osti ma'noni tushunib, uni fikri va hissiyotlari bilan ochib berishi nutqining ta'sirchanligi oshishi va masalni mukammal o'rganishning yangi bosqichlariga o'tganligini ko'rsatadi.

Ijroda tub ma'noning ochilishida so'z urg'usi va mantiqiy urg'u muhim omil bo'lib xizmat qiladi. "**Urg'u** – turli fonetik vositalar (mas., ovozni kuchaytirish) orqali bo'g'in yoki so'zni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz" [6, B.117] – degan ma'noda qo'llanadi. Tovush, so'z va jumlar, hatto bo'laklar ham urg'u bilan o'ziga xos ohang kasb etishini "Sahna nutqi" fani doimo ta'kidlab kelgan. Masal janrida tub ma'noning ochilishi va ijroda yorqin ifodasini topishda mantiqiy urg'udan unumli foydalaniladi. Odatda, tovush va so'zlarning urg'u olishi (') belgisi bilan ifolangan. Mantiqiy urg'u oladigan so'zlar esa to'q qora ranglar orqali ajratib ko'rsatiladi. Masal tahlilida urg'u oladigan so'z va jumlarni aniqlab olish muhim. Chunki urg'ularni aniqlash tub ma'noning to'laqonli ochilishi va uning ta'sirchanligini belgilab beradi.

Masalda mantiqiy urg'u (*to'q qora rang bilan ajratib ko'rsatiladi*) va tub ma'noni (*bo'laklarga ajratgan holda mazmunini yoritish*) aniqlashni Yamin Qurbon qalamiga mansub "Yeng ichida don cho'qishganlar" masali tahlili misolida ko'rib chiqamiz:

Sudrab asta biqqagina tansiq baliqni
Kirdi Ayiq huzuriga **o'rmon Mushugi**:
"O, sultonim! Boshim ko'kda **yo'qlovingizdan!**
Intiq edim olgali bir suhbatingizni,
Intiq edim bir ziyofat qilgali ko'pdan.
Omadimga tasannoki, voh-voh, qarang-a,
Tushmi yo o'ng, yo peshonam yarqirashimi,
Turibman **qutli xonangizda** ko'rishib diydor".

Ushbu bo'lakda o'z aybini yashirish, shirin so'z va xushomad bilan rahbarning marhamatidan umidvor bo'lgan mug'ombir kishining o'y-xayollari aks etganini ko'rish mumkin. Talaba o'rmon Mushugi obrazi tagida kim yashiringanini tushungan holda nutqida yangragan har bir so'zning tub ma'nosini ochib berishga intiladi. Mushuk obrazida xalq mulkini talon-taroj qilayotgan o'g'ri va kazzob shaxs qiyofasi gavdalanganligini, Ayiq obrazida esa jamiyatni yovuzliklardan tozalovchi va himoyalovchi shaxs tasvirlanganligini tushunib yetadi.

Talaba masal mazmunida yashirin tasvirlangan kishilarni fikran aniqlagach, ularning maqsad-muddaolarini tushungan holda muloqotga kirishadi. Dastlab, mug'ombir Mushuk obraziga kirib, jinoyatlarini berkitish maqsadida jamoat posboni Ayiqning ko'nglini olishga va unga izzat-ehtirom ko'rsatishga harakat qiladi.

“A-ha. – Lunjin qimtib qo'ydi iljayib Ayiq.
Bu, deymen, xo'sh, **haddan juda oshib ketmishsiz**,
Ko'p jilg'alar jondorlarin **betinch etmishsiz**;
Nechalarin joylamishsiz **qoringa** hatto.
Qilmoqdalar ko'p baliqlar arz ustiga arz.
Loyiq jazo bermoq mening bo'ynimdagi qarz”.

Talaba masal ijrosida bir obrazdan ikkinchi bir obrazga fikr izchilligi va nutqiy xatti-harakati orqali o'tishi lozim. Ayiq obrazi orqali gavdalantirilgan kishining tashqi siyrati, ovoz ohangi, asosiy maqsad-muddaosi talabaning mahorati bilan ochib beriladi. Jamiyatda tinchlik va halollik, tartib-intizom o'rnatishni niyat qilgan rahbarning nutqi tanbehona jaranglaydi. Mushukning jinoyatiga jazo muqarrarligini talaba nutqi orqali ochib beradi. Bunda albatta, matn ostidagi tub ma'noga ergashgan holda talabaning fikri oydinlashadi.

Masaldagi har bir so'z, misra yoxud bo'lakning tub ma'nosini anglashni esa mantiqiy urg'u ochib beradi. Talaba matn ostiga yashiringan ma'noni tushunmasdan ijroga o'tsa, asarning ta'sir kuchi bo'lmaydi. Ayniqsa, allegorik obrazlar va ularning maqsad va vazifalari nimadan iborat ekanligini anglab yetmasa, bu talabaning o'z ustida ishlamasligi, fikrlash mahorati sustligini namoyon qiladi.

Asosiy qism. Aktyorlik va rejissorlik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning fikrlash qobiliyati, o'z ustida ishlash mahorati, kitob mutolaasiga bo'lgan layoqati doimo ta'kidlab kelingan. Talabalarni kitob o'qish, o'z fikrini bayon qilish, tahliliy fikrlarini ifodalashda ijodiy ko'nikma hosil qilish lozim. Bu kabi omillar talabani mustaqil fikrlashga, muallif g'oyasini anglab yetishga, eng muhimi shaxs sifatida kamol topishida amaliy ko'mak beradi.

Har qanday asarni harakatga keltiruvchi kuch bu **tempo-ritm**dir. Adabiy jarayonda temp va ritm alohida tushuncha sifatida qo'llanilsa-da, ijrochilik san'atida o'zaro uyg'un holda keladi. “Hayot bor joyda harakat, harakat bor joyda – qimirlash, qimirlash bor joyda esa – temp, temp bor joyda – ritm bor” [7, B.152] – deydi teatr nazariyotchisi K.S.Stanslavskiy.

Sahna asarini harakatga keltirib, uni jonlantirgan tempo-ritm masal janrining har bir bo'lagida o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki, masal janri rang-barang va turli xarakterlarga ega bo'lgan obrazlarga boyligi, qochirim va kesatiq tilining o'tkirligi, xatti-harakatlarning zudlikda o'zgaruvchanligi bilan nutqni boyitadi. Bunda esa ijrochiga tempo-ritm yordamga keladi. “Nutqning tempo-ritmi u yoki bu asarning, obrazning tag zaminida yotgan fikrni oydinlashtirishda muhim ifoda usullaridan biridir. Agar ta'bir joiz bo'lsa, u inson emotsional holatining haroratini, tafakkur kuchining keskinligini yoki aksincha, bo'shanligini, personajlarning o'zaro munosabatlaridagi xarakterli xususiyatlarni ifodalaydi” [8, B.70] – deyiladi.

Masal bir xil maromda ijro etilmaydi. Negaki, masal bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan xarakterlar to'qnashuvi, piching va kinoyani o'zida qamrab olgan tub ma'noga egaligi, voqea va hodisalarning tez suratda o'zgaruvchanligi bilan ijroga hayotiylik baxsh etadi. Bu esa masalning o'z tempo-ritmiga ega ekanligini bildiradi. Masal jo'shqin hissiyotlarni talab qilar ekan deb, uni shoshma-shosharlik bilan ijro qilib bo'lmaydi. Agar talaba tempo-ritmni tezlik deb tushunadigan bo'lsa, so'zlarni aralastirib yuborishi, muallif va obraz nutqini farqlamasligi, allegorik obrazlar xatti-harakatini bo'rttirib ko'rsatishi, voqea tafsilotini o'ynab yuborishi kabi holatlar kuzatiladi. Bu ijrochilik mahoratining noto'g'riligi va sahna nutqi metodikasiga qarshi bo'lgan jarayondir. Talaba masal ijrosida bu kabi xatoliklarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Asar tempo-ritmi ichki ruhiy holat bilan bog‘liqdir. Agar asar ko‘tarinki va shiddatli tempda bo‘lsa, ritm unga nisbatan sustroq holatda bo‘ladi. Ayrim vaqtlarda temp va ritm o‘zaro to‘qnash kelib, avj nuqtadagi ijroni talab qiladi. Faqat bunda talaba, tovushlarning aniq va ravonligi, fikr izchilligi, maqsad-muddaosini yo‘qotib qo‘ymasligi lozim. Aks holda, ijroda shallaqi, bema‘ni nutq kuzatilishi mumkin.

Masal ijrosi ustida ish olib borganda, albatta matndagi pauzalarni belgilab olish zarurdir. Talabaniing pauzalardan mahorat bilan foydalanishi masalning eshitimli bo‘lishini ta‘minlaydi. “**Pauza** – nutq jarayonida biror mantiqiy ehtiyoj yoki maqsad tufayli tinim saqlanadigan vaqt birligi” [4, B.153] – deydi S.Inomxo‘jayev va uning bir necha ko‘rinishlarini sanab o‘tadi. Ular lyuft pauza, mantiqiy pauza, psixologik pauza, sayyor pauza bo‘lib, badiiy asarlarning barcha janrlarida mantiqiy fikr izchilligini ta‘minlab beradi, deyiladi. Pauzani to‘xtam, sukut deb to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunish noto‘g‘ri. Bu sukunat ostida kuchli ichki so‘z xatti-harakati mujassam ekanligini tushunish lozim. Shu bois ham masal ijrosida pauzalardan erkin foydalanish va ichki ruhiy holatni ochib berishda tempo-ritmni belgilab olish muhimdir. Matnlarda lyuft pauza (/), pauza (//) belgisi bilan ajratib chiqiladi. Qolaversa, matn tahlilida pauzalarni belgilab olish so‘zlarning tub ma‘nosini anglashni va ijro sur‘atining maromini boshqarib borishda ham qo‘l keladi.

Masalda tempo-ritm va pauzaning qo‘llanishini yuqorida keltirilgan Yamin Qurbonning “Yeng ichida don cho‘qishganlar” masalining davomi misolida ko‘rib chiqamiz:

“O‘, // shunga ham arzu dodmi, / ko‘tarib uvvos!
 Quruqlikka sakraganin yeyapman, xolos.
 O‘zgarlar ham men qatori ketmoqda ilib,
 Ilib ketgan kabi / chumchuq kapalaklarni”.

O‘rmon Mushugi o‘ziga qo‘yilgan ayblarni oqlash, o‘zini begunoh qilib ko‘rsatish maqsadida jon-jahdi bilan so‘zlayotgani misralar mazmunida aks etgan. Talaba jamiyatdagi bu kabi kishilarni tasvirlashda tempo-ritmning rivojidan foydalanadi. Ya‘ni, nutqi va xatti-harakatini faollashtiradi, aybsiz ekanligini uqtirish uchun dalillar keltiradi.

“Deydilarki, yopib bo‘lmas oyni etak-la.
 Lek // negadir kelayotir sizni suyagim,
 Boshingizga yog‘gan qorni tezroq kuragim”.
 “Karnaychidan bir puf, derlar, sadag‘ang ketay,
 Suyasangiz, turarmidik // barmoqni so‘rib,
 Axir, bor-da har kimning ham / ichmak-yemagi.
 Qarsak ikki qo‘ldan chiqur, deyishadi-ku”.

Sahna nutqi metodikasi tanlangan har qanday matnni bo‘laklarga ajratgan holda o‘rganishni talab qiladi. Ajratilgan bo‘laklar mantiqiy tahlil asosida yanada aniq fikrlarni yuzaga chiqaradi. Yuqorida keltirilgan bo‘lakda keskin holat o‘zgarishini ko‘rish mumkin. Aiyq obrazining Mushukka yon bosishi ijroda tempo-ritmning sokin va sirli tus olishini ifodalaydi. Aiyqning maqsadini tushungan Mushuk obrazi bu sokinlikni faol nutqi bilan rivojlantiradi. Ichki va tashqi ruhiy holat Mushukning jonli va ishoniruvchi nutqi bilan faollashadi.

“Bolu navvot, degan bilan / chuchimas og‘iz.
 Buyog‘i, hm, // o‘zingizdan bormi qolar gap.
 Xamirdan qil sug‘irgandek / hal bo‘lar ishlar.
 Faqat // har kun kelishi shart // manavi baliq...”

Ushbu bo‘lakda Ayiqning asl maqsad-muddaosini tushunib yetgan talaba ijrosida shu kabi insonlarni gavdalanirishda shoshmasdan, ehtiyotkorona xatti-harakat bilan nutqini davom ettiradi. Talaba Ayiq nutqini xotirjam holatda ifoda qilsa-da, ichki ruhiy holatini yuqori sur‘atda davom ettiradi.

“Kelmasa gar solingiz / shart bo‘g‘zimga sirtmoq”.

“Unda-chi, // bir rol o‘ynaysiz / bo‘libon artist,

Ya‘ni, / ingrab yarangizga sepilgandek tuz,

Qabulimdan / maymoqlanib chiqib ketasiz.

Qasd etgan ul bijildoqlar / guvrashib shunda,

Ana, ko‘ring, jazolanmay qolmabdi-ku, deb

Xoholashar bir-birlarin qitiqlagandek.

Shu bilan, deng, / qor yog‘ilib, // bosiladi iz,

Menga esa dillarida / qolmaydi shubha”.

Ayiq va Mushukning dialogi ushbu bo‘lakda yuqori tempo-ritmda davom etadi. Talaba ijroda ochko‘z va o‘g‘ri Mushuk hamda tamagir va ikkiyuzlamachi Ayiq obrazlarini gavdalanirishda aktyorlik mahorati va nutqiy xarakter yarata olish qobiliyatiga tayanib ish olib boradi. Negaki, jamiyatda uchrab turadigan bu kabi shaxslarni fosh qilishda ijodiy topilmalar muhim sanaladi.

Shunday qilib, bajarildi / Ayiq rejasi.

Shundan beri // semiz baliq / kelar kechasi.

Ushbu bo‘lak masalning xulosasi sifatida qo‘llanilgan. Talaba matn ostidagi ma‘noni sokin va xotirjam, lekin o‘tkir va tanbehona fikr bilan tomoshabinga yetkazib beradi.

Masal tahlili va talqini ustida ishlash talabaning bilim va ko‘nikmalarini oshiradi. Jamiyatda xalq mulkini talon-taroj qilayotgan laganbardor Mushuk obrazi va o‘z vazifasini suiiste‘mol qilib, ochko‘zlarning homiysi va himoyachi bo‘lgan tamagir Ayiq obrazini gavdalanirish orqali bu kabi shaxslarni fosh qilishni maqsad qilib belgilaydi. Masaldan chiqarilgan xulosa ham shundan iboratki, jamiyat ochko‘z va tamagir shaxslarning boshqaruvida bo‘lsa, xalq aslo ro‘shnolik topmaydi, mamlakat esa hech qachon rivojlanmaydi. Bu masalning ijrosi kishilarni to‘g‘ri va halol yashashga undovchi asar bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Talaba ijro uchun mazmunan mukammal, o‘tkir syujetli, rang-barang obrazlarga boy, yumor va satirasi kuchli bo‘lgan masallarni tanlasa, muallif tomonidan taqdim qilingan tub ma‘noning ochilishi hamda ijrochining maqsad va g‘oyasi bilan yorqin ifodasini topadi. “Masalning realistik kuchi shundaki, unda voqelik umuman abstrakt, tarixiy va sotsial muhitdan ajralgan holda tasvirlanmaydi. Balki masal syujeti obektiv borliqdan tanlab olinadi. Shuning uchun ham masalda shartli allegorik personajlar berilsa-da, aslida ana shu hayvonlar “niqobi” ostida tipik va konkret obrazlar, real voqelik yotadi” [9, B.19] – deyiladi. Masalning qudrati ham ana shunda. Jamiyat va kishilar hayotidagi illatlarni fosh qilish, uni tag-tomiri bilan yulib tashlashda turli hayvonlar va narsa-predmetlar niqobi ostida fikr bildirish ijodkorning badiiy salohiyatini mustahkamlaydi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tahrir hay‘ati E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov va b. - T.: Davlat ilmiy nashriyoti, (2006-2008).
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. – T.: Akademnashr, 2013. – 408 b.
3. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Bilim” nashriyoti, 2005. – 192 b.
4. Inomxo‘jayev S. Badiiy o‘qish asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1973. – 180 b.
5. Po‘latov I. Sahna nutqi. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1994. – 135 b.
6. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2020, - 164 b.
7. К.С.Станиславский. «Собрание сочинений в восьми томах. Том 3 – Работа актёра над собой. Част III. Работа над собой в творческом процессе воплощений. Дневник ученика». М.: Искусство, 1955.
8. Sayfiddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. – T.: “Fan” nashriyoti, 1980. – 178 b.
9. Xolmatov Sh.K. Adabiy janrlar poetikasi (Masal janri). [leksiya tekstlari] – Samarqand, 1980. – 68 b.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz